



## ISLOM KAPITAL BOZORI EKOTIZIMIDA MOLIYAVIY INSTRUMENTLARNING AHAMIYATI

*DSc, dots. **Abrorov Sirojiddin***

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi  
"O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy  
asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi  
ORCID: 0000-0001-9559-0231*

*[s.abrorov@tsue.uz](mailto:s.abrorov@tsue.uz)*

**Annotatsiya.** Maqolada islom kapital bozori ekotizimining iqtisodiy ahamiyati va zamonaviy moliyaviy tizimdagi roli tahlil qilinadi. Sukuk, islomiy aksiyalar va ETF kabi moliyaviy instrumentlarning rivojlanishi, shuningdek, shariat kuzatuv kengashlari va xalqaro institutlarning ishonch muhitini ta'minlashdagi o'rni yoritilgan. Tadqiqot islom kapital bozorlarining barqaror rivojlanishi uchun innovatsion moliyaviy mahsulotlarni joriy qilish va xalqaro hamkorlik zarurligini ko'rsatadi. Ushbu bozor global iqtisodiyotda investitsiyalarni jalb qilish, adolat va barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** islom moliyasi, islom kapital bozori, sukuk, institut, instrument, aksiya, ETF.

## ЗНАЧЕНИЕ ФИНАНСОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В ЭКОСИСТЕМЕ ИСЛАМСКОГО РЫНКА КАПИТАЛА

*DSc, доц. **Абровов Сирожиддин***

*Научно-исследовательский центр  
«Научных основ и проблем развития экономики Узбекистана»  
при Ташкентском государственном экономическом университете*

**Аннотация.** В статье анализируется экономическое значение экосистемы исламского рынка капитала и ее роль в современной финансовой системе. Рассмотрено развитие таких финансовых инструментов, как сукук, исламские акции и ETF, а также роль шариатских наблюдательных советов и международных институтов в обеспечении атмосферы доверия. Исследование показывает, что для устойчивого развития исламских рынков капитала необходимо внедрение инновационных финансовых продуктов и международное сотрудничество. Этот рынок имеет важное значение для глобальной экономики, способствуя привлечению инвестиций, справедливости и стабильности.

**Ключевые слова:** исламские финансы, исламский капитальный рынок, сукук, институт, инструмент, акция, ETF.

## THE IMPORTANCE OF FINANCIAL INSTRUMENTS IN THE ISLAMIC CAPITAL MARKET ECOSYSTEM

*DSc, assoc. prof. Abrorov Sirojiddin  
Research Center "Scientific Bases and  
Issues of Economic Development Uzbekistan"  
at Tashkent State University of Economics*

**Abstract.** *The article analyzes the economic significance of the Islamic capital market ecosystem and its role in the modern financial system. It examines the development of financial instruments such as sukuk, Islamic stocks, and ETFs, as well as the role of Shariah boards and international institutions in fostering an atmosphere of trust. The research highlights the necessity of introducing innovative financial products and fostering international cooperation for the sustainable development of Islamic capital markets. This market plays a crucial role in the global economy by facilitating investment, fairness, and stability.*

**Keywords:** *Islamic finance, Islamic capital market, sukuk, institute, instrument, share, ETF.*

### **Kirish.**

Islom kapital bozori bugungi global moliyaviy tizimning ajralmas qismi bo'lib, u moliyaviy resurslarni safarbar qilish va ularni iqtisodiy jihatdan samarali taqsimlashning asosiy vositasi sifatida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu bozor ishtirokchilariga moliyaviy mahsulot va xizmatlarning keng spektrini, jumladan, sukuk, islomiy fondlar va islomiy aksiyalar kabi vositalarni taklif etadi. So'nggi yillarda islom kapital bozori demografik o'sish, iqtisodiy taraqqiyot, shariat talablariga javob beruvchi moliyaviy mahsulotlarga ortib borayotgan talab hamda qulay me'yoriy-huquqiy muhit tufayli sezilarli rivojlanish ko'rsatdi. 2023-yilda global islomiy moliyasi aktivlari hajmi 4,9 trillion AQSh dollaridan oshganligi kuzatildi (LSEG va ICD, 2024).

Islom kapital bozorining barqaror o'sishi va rivojlanishi asosan uning institutsional bazasiga bog'liq. Ushbu baza tarkibiga shariat kuzatuv kengashlari, Islomiy moliya institutlari, tartibga soluvchi organlar va bozor vositachilari kiradi. Bu institutlar nafaqat bozorda Islomiy tamoyillarning amal qilishini ta'minlaydi, balki operatsiyalarning shaffofligini oshirish va ishonch muhitini yaratishda ham muhim rol o'ynaydi. Masalan, 2023-yilda sukuk bozorida amalga oshirilgan operatsiyalarning umumiy hajmi 212 milliard AQSh dollariga yetgani (IIFM, 2024), bu turdagi moliyaviy vositalarga talabning ortib borayotganidan dalolat beradi.

Shuningdek, bozorni rivojlantirish uchun tartibga soluvchi va qo'llab-quvvatlovchi institutlarning hamkorlikda ishlashi zarur. Islom moliyasi bo'yicha xalqaro tashkilot (AAOIFI) va Islom taraqqiyot banki (IDB) kabi muassasalar Islom moliya bozorining global darajadagi izchil rivojlanishini ta'minlashga katta hissa qo'shmoqda. Bu esa bozorning yanada kengayishi va samaradorligini oshirish uchun hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu bilan birga, o'sish sur'atlarini yanada oshirish uchun shariat tamoyillariga muvofiq innovatsion moliyaviy mahsulotlarni joriy qilish va institutsional islohotlarni davom ettirish talab etiladi.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Islom kapital bozori va uning instrumentlariga oid ko'plab tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lib, avvalgilaridan birida islomiy kapital bozorlari va ularning Malayziya iqtisodiyotiga ta'sirini o'rganilgan (Anwar, 1995). Unda islomiy moliya tamoyillari asosida ishlab chiqilgan instrumentlarning an'anaviy moliyaviy bozorlardan farqlari, jumladan likvidlikni ta'minlash, xavf diversifikatsiyasi va shariatga mos investitsiya imkoniyatlari ko'rilgan. Muallif Malayziya bozorida islomiy qimmatli qog'ozlarning muvaffaqiyatli joriy etilishi va bu jarayonning

islomiy moliyaviy tamoyillarga mosligini batafsil tahlil qilgan. Xulosa sifatida yaxshi rivojlangan islom kapital bozorlari faqat musulmon davlatlariga emas, balki xalqaro investitsiyalarni jalb qilish orqali global iqtisodiyotga ham ijobiy hissa qo'shishi ilgari surilgan.

Dusuki (2010) muallifligidagi ilmiy ishda islomiy kapital bozorida foydalaniladigan asosiy vosita – sukukning shariat maqsadlariga mosligini baholagan. Maqolada ba'zi yangi ishlab chiqilgan Sukuk strukturalarining shariat tamoyillariga muvofiqligi yuzasidan tanqidlar bildirilgan. An'anaviy instrumentlarga o'xshash qilishga intilish natijasida ba'zi innovatsiyalar adolat va tenglik tamoyillarini buzayotganini keltirgan. Moliyaviy instrumentlarning huquqiy shaklidan ko'ra iqtisodiy mohiyatiga ko'proq e'tibor qaratish zarurligi qayd etgan.

Boshqa bir maqolada (Rethel, 2011) islom moliyasining xalqaro moliyaviy tizimdagi o'rnini va uning qonuniyligini o'rgangan. Muallif islom moliyasi mahsulotlarni joriy etish jarayonida asosiy e'tibor ularni an'anaviy moliyaviy faoliyat sifatida qabul qilishga qaratilganini ko'rsatgan. Bu yondashuv islom moliyasining o'ziga xos maqsadlarini buzishi va global moliyaviy tizimning mavjud strukturasi takrorlanishiga olib kelishi mumkinligini ta'kidlagan. Islom moliyasining asosiy maqsadlari va tamoyillariga mos keladigan yangi vositalarni shakllantirish zarur deb hisoblaydi.

Indoneziyada islom kapital bozorini joriy etishga bo'yicha qilingan sa'y-harakatlarni tahlil qilingan maqolada (Soemitra, 2016) islomiy investitsiyalarning uch asosiy foydasi — ma'naviy, moliyaviy va ijtimoiy manfaatlariga urg'u bergan. Investorlarning kapital bozorida islomiy mahsulotlardan kutilmalari qondirilganligi o'rganilgan. Muallif maqsadlar amalga oshishi uchun islom moliyasi instrumentlarining ahamiyatini tushunishni va shariat tamoyillariga qat'iy rioya qilish zarurligiga oid xulosalar bergan.

So'nggi yillarda islomiy kapital bozorlari orqali barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash masalalari bo'yicha tadqiqotlar dolzarb bo'lib bormoqda. Ana shunday izlanishlardan biri Nabila va boshqalar (2023)ga tegishli. Unda hukumat, moliyaviy institutlar va bozor ishtirokchilari o'rtasidagi hamkorlikning muhimligi yoritilgan. Barqaror rivojlanish strategiyalariga mos keladigan islom moliyasi instrumentlarining ishlab chiqilishi zarurligi qayd etilgan. Maqola shuningdek, islom kapital bozorlarining ahamiyatini oshirish uchun qo'shimcha tartibga soluvchi chora-tadbirlar taklif etgan.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Maqolani tayyorlash jarayonida turli ma'lumotlar va sharhlardan foydalanilgan. Ushbu ma'lumotlar islom moliyasi, moliyaviy tendensiyalar, axloqiy moliya, texnologik yutuqlar va boshqa shu kabi yo'nalishlarga asoslanadi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Islom kapital bozori tizimini shakllantirishdagi muhim jihatlardan biri bu fond bozori indekslaridir. Indeksning o'zi qisqa vaqtda bozor bo'yicha umumiy ma'lumotlar bera oluvchi ko'rsatkichlar hisoblanadi. "Indeks – bu moliyaviy qimmatli qog'ozlar yoki uyushgan yoki uyushmagan moliya bozorlarida yoki ikkalasida sotiladigan tovarlarning tanlangan to'plamiga asoslangan statistik hisoblangan ko'rsatkich" (AAOIFI, 2015). Har bir mahsulotga bozor qiymatiga qarab ma'lum bir og'irlik beriladi va umumiy qiymat doimiy raqamga bo'linadi. Hozirgi vaqtda eng mashhur ko'rsatkichlar iste'mol narxlari indeksi, shuningdek, moliya bozorlaridagi Dow Jones va FTSE indeksleri hisoblanadi.

Bozor holatini o'lchash uchun yaxshi ishlab chiqilgan indeks mamlakatdagi umumiy iqtisodiy vaziyatni ko'rsatadi va har qanday o'zgarishlar sodir bo'lishidan oldin uning kelajakdagi o'zgarishini bashorat qilishga yordam beradi. Shu bilan investitsiya qarorlarini qabul qilishni osonlashtiradi. Indeks, shuningdek, investorlarga qimmatli qog'ozlar narxlarining kelajakdagi harakati to'g'risida signal berishi yoki bunday narxlarning ma'lum

bir pasayish yoki ko'tarilish tendensiyasini ko'rsatishi mumkin. Bir indeks va boshqasi o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nomuvofiqlik tufayli indekslardan tahliliy usullardan tashqari, bozor sharoitlari va savdo modellari bo'yicha ustuvor hisoblangan boshqa modellarda ham foydalaniladi.

Indeksning yuqoriga va pastga harakatlari bozor yo'nalishlarini ko'rsatadi va shuning uchun bozor o'sib borayotgan yoki pasayib borayotgan bozor sifatida belgilanadi.

Islom fond indeksleri butun dunyo bo'ylab fond birjalarida ro'yxatga olingan shariatga mos keladigan kompaniyalarning samaradorligini o'lchash uchun mo'ljallangan moliyaviy ko'rsatkichlardir. Ushbu indekslar islom moliyasi tamoyillari va qadriyatlariga mos keladigan oldindan belgilangan mezonlar to'plami yordamida tuzilgan.

Islom fond indekslariga qo'shilish mezonlari odatda islom moliyasi huquqshunosligi va moliya sohasida tajribaga ega bo'lgan olimlarni o'z ichiga olgan shariat kuzatuv kengashlari tomonidan belgilanadi. Ushbu kengashlar kompaniyalarning tijorat faoliyatini tekshiradi va ularning daromad manbalari, moliyaviy tuzilmalari va biznes operatsiyalari asosida shariat talablariga javob berishini aniqlaydi.

So'nggi yillarda islom fond indeksleri butun dunyo bo'ylab investorlar orasida shariatga mos investitsiya variantlariga bo'lgan talabning ortib borayotganini aks ettirgan holda mashhurlikka erishdi. Ular islomiy axloqiy me'yorlarga javob beradigan kompaniyalarning samaradorligini o'lchash uchun mezon bo'lib xizmat qiladi va investorlarga o'zlarining diniy e'tiqodlariga muvofiq sarmoya kiritish imkoniyatini beradi.

Hozirda Dow Jones Islamic Market Index, FTSE Shariah Global Equity Index va S&P Global Islamic Index kabi bir qancha yirik islom fond indeksleri mavjud. Ushbu indekslar bir qator sanoat va geografik hududlarni qamrab oladi. Bu esa investorlarga Islom tamoyillariga rioya qilgan holda global fond bozorlariga diversifikatsiyalangan shaklda kirish imkonini beradi.

Indeksni hisoblash – bu o'tgan va joriy narxlar prognozlarini, bozor prognozlarini, vaqt oralig'i, savdo narxlarining yuqori va pastki chegaralari va ko'rsatilgan grafiklarni o'z ichiga olgan bir nechta jihatlarga bog'liq bo'lgan jarayon.

Indeks bir-biridan bir necha jihatlari bilan farq qiladi, masalan, indeks komponentlari yoki u umumlashtirmoqchi bo'lgan ma'lumotlar turi, har bir komponentga tayinlangan og'irligi va uni hisoblash usuli. Biroq, har bir indeks tahlil qilmoqchi bo'lgan ma'lumotlardan qat'iy nazar, kapital va tovar bozorlaridagi barcha ma'lum indekslar orasida ba'zi umumiy xususiyatlar mavjud. Ushbu xususiyatlar orasida eng muhimi aniqlik, obyektivlik va shaffoflikdir.

Aniqlik indeksi komponentlarining to'g'ri xususiyatini, ma'lumotlarni kiritish manbalarini, ma'lumotlarni olish vaqtini, og'irliklarni hisoblash usulini va raqamlarni yaxlitlash asoslarini anglatadi. Obyektivlik indeks qiymatini ma'lum bir sanada yoki ma'lum bir joyda aniqlash borasida kelishmovchiliklarga yo'l qo'ymaslik uchun indeksning batafsil hisob-kitoblarini taqdim etishni o'z ichiga oladi.

Shaffoflik indeks ko'rsatkichlarini o'qish vaqti, joyi va usulini oldindan ko'rsatishni o'z ichiga oladi, shunda noaniqliklar bu jarayonda mavjud bo'lmaydi.

Deyarli barcha indekslarni tartibga soluvchi ba'zi umumiy tamoyillar mavjud, masalan: indeksning mutlaq qiymati, agar u bitta raqam sifatida taqdim etilsa, muhim emas. Indeksning ma'lum bir vaqtdagi qiymati faqat indeksning o'tmish va kelajakdagi qiymatlari bilan taqqoslaganda ahamiyatli bo'ladi. Shundagina o'zgarish tendensiyasi va foizini kuzatish mumkin. Masalan, indeks qiymatining 10 punktga oshishi uning oldingi qiymatining 1 foizini tashkil qilishi mumkin;

turli davrlardagi indeks qiymatlari uning oqibatlarining aniqligiga ta'sir qilmasdan ko'paytirilishi yoki har qanday doimiy raqamga bo'linishi mumkin (ya'ni indeks raqamlarini aksiyalarni taqsimlash bilan bir xil foizga oshirish yoki kamaytirish). Boshqacha qilib

aytganda, indeksning qiymati cheklangan, chunki u vaqti-vaqti bilan uning tarkibiy qismlarining o'rtacha o'sishi va pasayishini anglatadi.

Indekslarni turli asoslarga bir qancha turlarga ajratish mumkin.

Umumiy yoki o'ziga xos xususiyatiga ko'ra indekslarni quyidagi toifalarga bo'lish mumkin:

umumiy indekslar. Umumiy bozor holatini o'lchaydi.

tarmoq indekslari. Transport sektori kabi ma'lum bir tarmoq yoki sohadagi bozor holatini o'lchaydigan sanoat indekslari.

Narxlar harakatidan oldingi indekslar markaziy va hududiy tebranishlarga nisbatan quyidagi toifalarga bo'linishi mumkin:

markazlashtirilgan tebranish indekslari. O'tmishdagi ma'lum bir davrda narxlarning o'zgarishini o'lchaydigan va kelajakdagi voqealarni ko'rsatadi.

oralik intervalli tebranish indekslari haddan tashqari sotib olish yoki haddan tashqari sotish kabi ikki soha o'rtasida tebranadigan tartiblangan indekslar.

Islomiy moliyaviy muassasalar uchun buxgalteriya hisobi va audit tashkilotining 27-shariat standartiga muvofiq indekslardan foydalanishning quyidagi usullariga ruxsat beriladi (AAOIFI, 2015):

1. Shariatda ma'lum bir bozordagi o'zgarishlar ko'lamini aniqlash uchun indekslardan foydalanishga yoki ular olgan daromadlarni indekslar bilan taqqoslash orqali ixtisoslashgan menejrlarning ishini baholashga ruxsat beriladi. Indeks har bir moliyaviy qog'ozning samaradorligi va xatarlarini alohida-alohida kuzatib borish o'rniga, portfel tushunchasini shakllantirish yoki uning tizimli xatarlarini baholash uchun ishlatilishi mumkin. Bundan tashqari, indekslar kelajakdagi bozor holatini bashorat qilish va bozor ta'sir qilishi mumkin bo'lgan o'zgarish shakllarini aniqlash uchun ham ishlatilishi mumkin. Shuning uchun shariat tomonidan haqiqiy bitimlarga tegishli operatsiyalarda rahbarlik qilish uchun indekslardan foydalanishga ruxsat beriladi.

2. Indekslerden fondlar va investitsiya obligatsiyalarini taqqoslash, menejer mukofoti yoki agent bonusini investitsiya bilan bog'lash yoki mudorib bonusini mudoraba natijalari bilan bog'lash uchun qo'llanma sifatida foydalanish mumkin.

3. LIBOR kabi indeksdan yoki ma'lum bir aksiyalar/tovarlar narxlari indeksidan murobaha shartnomasidan olinadigan foydani aniqlashda benchmarking uchun asos sifatida foydalanishga ruxsat beriladi. Bunda shartnoma indeksdagi keyingi o'zgarishlar bilan o'zgarimaydigan ma'lum bir foyda uchun tuzilgan bo'lishi talab etiladi.

4. Daromadni ifodalovchi ijara to'lovini aniqlash uchun indeksdan foydalanishga ruxsat beriladi.

5. Pulga asoslangan mehnat shartnomalari bilan bog'liq mehnat qoidalarida ish haqini indeksatsiya qilish to'g'risidagi Nizom nazarda tutilishiga yo'l qo'yiladi. Bu yerda ish haqini indeksatsiya qilish manfaatdor organlar tomonidan belgilanadigan narxlar darajasidagi o'zgarishlarga muvofiq ish haqini davriy ravishda sozlashni anglatadi. Biroq, qarz shaklida bo'lgan to'lanmagan ish haqi to'plangan taqdirda, qarzlarda to'g'risidagi islom moliyasi qoidalariga rioya qilish kerak. Ya'ni qarzlarda indeksatsiya qilinishiga ruxsat etilmaydi.

6. Mudorib yoki agent tomonidan amalga oshirilgan bitimlarni ma'lum bir indeksga bog'lashga ruxsat beriladi, shunda u indeks ma'lum bir qiymatga yetganda mahsulotni bozor narxida sotishi yoki ma'lum miqdordagi mahsulotni narx bo'yicha sotib olishi mumkin.

7. Xaridor yoki sotuvchi tomonidan majburiy garovni bajarilishini ma'lum bir sanadagi tovar narxiga nisbatan ma'lum bir indeksning oshishi yoki pasayishi bilan bog'lashga ruxsat beriladi, shunda har qanday qo'shimcha o'sish tovar narxiga qo'shilishi mumkin.

8. Xayriya tashkilotiga o'tkaziladigan xayriya miqdorini kechikishi hisobiga ma'lum bir indeks bilan bog'lash joizdir.

Yuqoridagi 27-standartga ko'ra quyidagi holatlarda indekslardan foydalanishga ruxsat etilmaydi:



1. Haqiqiy aktivlarni sotmasdan yoki sotib olmasdan indekslarni sotishni yoki ularning moliyaviy bozorlardagi o'zgarishlaridan pul to'lash yoki olish orqali foydalanishni taqiqlaydi. Bunday bitimlar potensial xavfdan himoya qilish uchun amalga oshirilgan bo'lsa ham taqiqlanadi.

2. Indekslar bo'yicha opsiyon shartnomalarini tuzishga ruxsat etilmaydi.

3. Multiplikator shartnomalar indeksi bo'yicha shartnomalar tuzish mumkin emas.

4. Shartnomalarni, masalan, sotishni ma'lum bir indeksga bog'lab to'xtatib turish taqiqlanadi.

5. Kredit berish paytida qarzning miqdorini narxlar indeksiga bog'lash taqiqlanadi.

Islom indeksini ishlab chiqishda quyidagi jihatlarni hisobga olish kerak:

Islom moliyasi tamoyillariga amal qilish, shuningdek, indeksning tarkibiy qismlari va uning qo'llanilishi bilan bog'liq texnik masalalarda ham.

Vaqti-vaqti bilan indeksning tarkibiy qismlarini islom moliyasi tamoyillariga mosligini ko'rib chiqish va hisobot berish maqsadida indeks uchun shariat kuzatuv kengashini tashkil etish.

Shariat kuzatuv kengashi va tartibga soluvchi organlar o'z faoliyatini islom moliyasi tamoyillari asosida tashkil etilishi yuqorida ta'kidlab o'tildi. Bunda ular jarayonni muvofiqlashtirish uchun turli standartlardan foydalanadi. AAOIFI standartlari eng keng qo'llaniluvchi standartlardan hisoblanadi. Islom kapital bozorida islom moliyasi tamoyillariga mos keluvchi qimmatli qog'ozlarni saralab olish hamda islom fond bozori indekslarini shakllantirishda ham qo'llaniluvchi AAOIFI 21-standarti muhim ahamiyat kasb etadi (AAOIFI, 2015). Ushbu standart aksiyalarni chiqarish va joylashtirish, shu jumladan, investitsiyalar, savdo, ijara, kreditlash, garov va sotish, shuningdek, aksiyalar asosida fyuchers, opsiyon va svop shartnomalarini tuzish qoidalariga nisbatan qo'llaniladi. Standart, shuningdek, foizli obligatsiyalarni chiqarish va sotishni ham qamrab oladi. Standart alohida maxsus standart mavjud bo'lgan investitsiya sukuklariga taalluqli emas. Sukukka oid AAOIFIning 17-standarti mavjud (AAOIFI, 2015). Sukuklarning jahondagi statistik ma'lumotlari va unga bog'liq ayrim tahliliy ma'lumotlar bilan har yili e'lon qilinadigan hisobotda tanishib chiqish mumkin (IIFM, 2024).

21-standartga ko'ra aksiyalarni chiqarish qoidalariga quyidagilar kiradi:

1. Agar korxonada faoliyati islom moliyasiga muvofiq bo'lsa, aksiyalarni chiqarishga ruxsat beriladi, shuning uchun korxonani yaratish maqsadlari spirtli ichimliklar ishlab chiqarish, cho'chqa savdosi yoki riboviy faoliyat kabi taqiqlangan operatsiyalar bo'lmasligi kerak.

2. Emissiya xarajatlarini qoplash uchun korxonada chiqarayotgan aksiyalar narxiga ustama narx belgilasa bo'ladi. Mazkur ustama o'zgarmas narx bo'lishi lozim.

3. Avval chiqarilgan aksiyalar qiymatiga teng narxda korxonada ustav kapitalini oshirish uchun yangi aksiyalarni chiqarishga ruxsat beriladi. Aksiya narxlari korporatsiya aktivlarini baholash yo'li bilan yoki bozor qiymatiga qarab belgilanadi.

4. Aksiyalar chiqarish uchun andarrayting xizmatidan foydalansa bo'ladi.

5. Obuna vaqtida ulush narxini qismlarga ajratishga ruxsat beriladi, shunda bir qismi to'lanadi, qolgan qismi esa kechiktiriladi. Investor o'zi to'lagan darajada ishtirokchi hisoblanadi va kompaniyadagi qo'shimcha kapitalini to'lashga majbur bo'ladi.

6. Tugatish yoki foyda taqsimlash vaqtida ustunlik berishga olib keladigan maxsus moliyaviy xususiyatlarga ega bo'lgan imtiyozli aksiyalarni chiqarishga yo'l qo'yilmaydi.

7. Tamattu aksiyalar chiqarishga yo'l qo'yilmaydi. Tamattu aksiyalar – korxonada tugatilgunga qadar qayta sotib olinuvchi va korxonada boshqaruv huquqini bermayigan aksiya turlari. Ular oddiy aksiyaga nisbatan kamroq darajada korxonada sof foydasidan dividend olish huquqi mavjud bo'ladi.

8. Hissa sertifikatini – bu aksiyadorning kompaniya aktivlaridagi bo'linmas ulushiga egalik huquqini tasdiqlovchi hujjat. Ushbu hujjatning egasini nomi yozilgan bo'lishi yoki taqdim qiluvchilik bo'lishi mumkin.

Aksiyalar bilan savdo qilishda islom moliyasiga ko'ra bir qancha qo'shimcha shartlar mavjud. Birinchi navbatda korxonalar faoliyati islom moliyasiga ko'ra ta'qiqlanmagan faoliyat bo'lishi lozim. Shunda boshqaruvda qatnashish maqsadidami, narxlar o'rtasida foyda ko'rish maqsadidami spot operatsiyasida yoki to'lovini kechiktirilgan shaklda sotib olsa bo'ladi.

Fundamental qoidaga ko'ra asosiy faoliyat turi islom moliyasiga muvofiq bo'lib riboviy yoki boshqa ta'qiqlangan faoliyat turi ham mavjud korxonalar aksiyasini sotib olish ruxsat etilmaydi. Ammo quyidagi shartlar topilgan taqdirda ruxsat etiladi:

1. Ta'sis hujjatlarida o'z maqsadi etib riboviy yoki boshqa ta'qiqlangan faoliyat turlari bilan shug'ullanishni keltirmaslik.

2. Korxonalar jalb qilgan barcha turdagi foizli qarzlarning jami korxonalar bozor kapitalizatsiyasining 30 foizidan oshmasligi.

3. Korxonalar barcha turdagi foizli qo'yilmalarining jami korxonalar bozor kapitalizatsiyasining 30 foizidan oshmasligi.

4. Korxonalar jami daromadlari tarkibida taqiqlangan daromadlarning ulushi 5 foizdan oshmasligi. Aksiyador aksiya orqali ko'rgan daromadning korxonalar mazkur daromad qismiga mos miqdorida voz kechishi lozim bo'ladi. Buni xayriya ko'rinishida amalga oshiradi.

Investor yuqoridagi ma'lumotlarni eng so'nggi moliyaviy hisobotlarga tayangan holda hisoblashi va zaruriy barcha ma'lumotlarni topishga harakat qilishi lozim. Agar mazkur tartib-qoidalarni tatbiq qilish imkonsiz bo'lsa u bo'yicha investitsiyadan voz kechish kerak bo'ladi.

Shuningdek, egaligida bo'lmagan aksiyalarni sotish (qisqa savdo, qisqa pozitsiya), aksiyalarni qarzga berish, aksiyalar uchun salam shartnomasini tuzish, aksiyalar uchun fyuchers, opsiya va svop shartnomalarini tuzish, aksiyalarni sotish yoki garovga qo'yish uchun ijaraga olish mumkin emas. Lekin garovga qo'yish yoki qarzdor dividendini olib qarzidan qutilishi uchun oriyat shartnomasiga binoan qarzga bersa bo'ladi.

Kompaniya aktivlari barchasi pul ko'rinishida bo'lsa aksiyalar nominal narxidan farqli narxda savdo qilish mumkin emas. Bunda kompaniya nolikvid aktivlari jami aktivlarining kamida 30 foizini tashkil etishi kerak.

### **Xulosa va takliflar.**

So'nggi yillarda islom kapital bozori ahamiyati demografik o'sish, iqtisodiy taraqqiyot va shariat talablariga javob beruvchi moliyaviy mahsulotlarga bo'lgan talab ortishi tufayli yanada oshib bormoqda. 2023-yilga kelib global islom moliyasi aktivlari hajmi 4,9 trillion AQSh dollaridan oshgani ushbu tendensiyaning yaqqol dalilidir.

Islom kapital bozorining barqaror rivojlanishi, avvalo, uning institutsional infratuzilmasiga, xususan, shariat kuzatuv kengashlari, moliyaviy institutlar va tartibga soluvchi organlarning samarali faoliyatiga bog'liq. Ushbu tashkilotlar shariat tamoyillarining qat'iy rioya qilinishini ta'minlash bilan birga, operatsiyalarining shaffofligini oshirish va ishonch muhitini yaratishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Masalan, sukuk bozorining jadal rivojlanishi moliyaviy mahsulotlarning diversifikatsiyalangan ko'rinishlarini joriy qilish va global investitsiyalarni jalb qilish imkonini bermoqda. 2023-yilda sukuk bozorida amalga oshirilgan operatsiyalar hajmi 212 milliard AQSh dollariga yetgani bu vositalarga bo'lgan yuqori talabni ko'rsatadi.

Islom kapital bozori nafaqat musulmon davlatlari, balki global moliyaviy tizim uchun ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu bozorning rivojlanishi global iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga, moliyaviy xavflarni diversifikatsiya qilishga va shariat tamoyillariga mos investitsiya imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Islom indekslari, jumladan Dow Jones Islamic Market Index va FTSE Shariah Global Equity Index kabi indikatorlar orqali global investorlar uchun shariatga mos investitsiya imkoniyatlari taqdim etilmoqda.

Ta'kidlash joizki, islom kapital bozori institutsional islohotlar, shariatga mos keluvchi innovatsion moliyaviy mahsulotlarning joriy etilishi va xalqaro moliyaviy hamkorlik orqali barqaror rivojlanish imkoniyatlarini kengaytira oladi. Ushbu bozorning global iqtisodiyotga qo'shadigan hissasi nafaqat moliyaviy resurslarni jalb qilish, balki adolat va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash orqali yanada ortishi mumkin. Shu sababli, islom kapital bozorlarini rivojlantirish strategiyalari global moliyaviy tizimning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida ahamiyat kasb etadi.

***Adabiyotlar /Jumepamypa/Reference:***

AAOIFI (2015). *The Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions Shari'ah Standards*. Manama. 1262 p.

Anwar, M., (1995). *An Islamic Perspective on Capital Markets and "Islamic" Securities in Malaysia*. *The Pakistan Development Review*, 34, pp. 865-878. <https://doi.org/10.30541/V34I4IIPP.865-878>

Dusuki, A., (2010). *Do equity-based Sukuk structures in Islamic capital markets manifest the objectives of Shariah?* *Journal of Financial Services Marketing*, 15, pp. 203-214. <https://doi.org/10.1057/FSM.2010.17>

IIFM (2024). *Sukuk report: A comprehensive study of the global sukuk market*. *International Islamic Financial Market*, 13th edition. 170 p.

LSEG and ICD (2024). *ICD – LSEG Islamic Finance Development Report 2024: From Niche to Norm*, 63 p.

Nabila et al. (2023). *THE ROLE AND POTENTIAL OF ISLAM CAPITAL MARKET IN SUSTAINABLE ECONOMIC DEVELOPMENT*. *Indonesian Journal of Multidisciplinary Sciences (IJoMS)*, 2(2), pp.322–334. <https://doi.org/10.59066/ijoms.v2i2.360>

Rethel, L., (2011). *Whose legitimacy? Islamic finance and the global financial order*. *Review of International Political Economy*, 18, pp. 75 — 98. <https://doi.org/10.1080/09692290902983999>

Soemitra, A., (2016). *Higher Objectives of Islamic Investment Products: Islamizing Indonesian Capital Market*. *Studia Islamika*, 23, pp. 237-269. <https://doi.org/10.15408/SDI.V23I2.2408>